

O'ZBEKISTON OAV LARIDA KAMSITISH VA OZCHILIK MAVZULARINI YORITISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY JIHATLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Zoilboyeva Odina Shavkatilla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

OAV huquqi magistratura bosqichi magistranti

odinazoilboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20504891>

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida — keyingi o'rinlarda OAV deb ataladigan institutda — kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishning axloqiy va huquqiy asoslari nazariy-doktrinaldoktrinal nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy konstitutsiyaviy-huquqiy normalar, jurnalistik etika qoidalari va xalqaro standartlar birinchi marta yaxlit tizim sifatida qiyosiy o'rganiladi; beshta asosiy huquqiy bo'shliq aniqlanadi. Moldova, AQSh, Janubiy Afrika va Hindiston tajribasi qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida qonunchilikni takomillashtirish, mustaqil monitoring joriy etish va inklyuziv jurnalistika ta'limini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: OAV; kamsitish; ozchilik; inklyuziv jurnalistika; nafrat tili; freyming; huquqiy bo'shliq; axloqiy mezon; xalqaro standart; sui generis.

Zamonaviy demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari xalq tilida "to'rtinchi hokimiyat" deb ataladi. Ular nafaqat axborot yetkizuvchi kanal, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, davlat organlarining faoliyatini nazorat qiluvchi va fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi kuchli institut hisoblanadi. O'zbekistonda 2026-yil holatiga ko'ra 708 dan ortiq veb-sayt OAV sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tgan; Prezident Mirziyoyevning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni "erkin fuqarolik jamiyatini va OAV faoliyatini yanada rivojlantirish"ni ustuvor yo'nalish sifatida belgilab bergan.¹

Shu bilan birga, OAV faoliyatining muhim, ammo yetarlicha tartibga solinmagan qirrasi — kamsitish va ozchilik mavzularini yoritish masalasi — bugungi kunda jiddiy huquqiy bo'shliq sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy qonunchiligimizda ushbu guruhlarini kamsituvchi axborot tarqatish taqiqlansa-da (Konstitutsiyaning 19-moddasi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi), kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishning aniq metodologik, axloqiy va huquqiy standartlari belgilanmagan.²

Maqolaning ilmiy maqsadi — O'zbekiston OAV larida kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishning mavjud axloqiy va huquqiy asoslarini tahlil qilish, undagi huquqiy bo'shliqlarni aniqlash hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun: birinchidan, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va etika qoidalari tahlil qilinadi; ikkinchidan, milliy amaliyot va xalqaro tajriba qiyosiy o'rganiladi; uchinchidan, huquqiy bo'shliqlar aniqlanib, ularni hal qilish bo'yicha aniq tavsiyalar shakllantiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi PF-21-son Farmoni // lex.uz/uz/docs/-8050769

² "OAV to'g'risida"gi Qonun, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 19-modda.

Ishda mantiqiy, doktrinaldoktrinall, qiyosiy-huquqiy hamda tizimli-tahliliy usullardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbaviy poydevorini milliy qonunchilik hujjatlari, ilmiy monografiyalar, ilmiy maqolalar, Moldova monitoringi hisoboti va xalqaro standart hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, O'zbekistonda OAV da kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar ilk bor yaxlit tizim sifatida kompleks tahlil qilingan; milliy qonunchilik xalqaro standartlar bilan birinchi marta qiyosiy o'rganilgan; nafrat tili, viktimbleyming va "raqamli ko'paytirish" mexanizmlarining O'zbekiston kontekstidagi namoyon bo'lish shakllari ilk bor ilmiy tahlil qilingan; ikkita yangi nazariy ta'rif ishlab chiqilgan.

OAV faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. O'zbekiston OAV faoliyatining huquqiy asosi pog'onali tuzilmani tashkil etadi: Konstitutsiyadan boshlanib, tarmoq qonunlarigacha davom etadi. Konstitutsiyaning 81-moddasi OAV erkinligini e'lon qilsa, 82-modda senzura mutlaqo taqiqlaydi. "OAV to'g'risida"gi (O'RQ-78, 2007), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi (400-I, 1997) va "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi (402-I, 1997) qonunlar ushbu kafolatlarni hayotga tatbiq etuvchi aniq mexanizmlarni belgilaydi: so'rov muddatlari (7–15 kun), manba himoyasi, akkreditatsiya instituti, senzura taqiqi, raddiya mexanizmi.³

2019-yilda qabul qilingan O'zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi haqiqatga sodiqlik, xolislik, shaxs qadr-qimmatini hurmat qilish, milliy va diniy kamsitilishga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini belgilaydi. Biroq ushbu tamoyillarni kamsitish va ozchilik mavzularida qanday qo'llash kerakligining aniq ko'rsatmalari va nazorat mexanizmi shakllanmagan — bu asosiy tizimli kamchilik sifatida aniqlandi.⁴

Amaldagi 34-modda bo'yicha raddiya va javob qaytarish mexanizmi faqat alohida jismoniy yoki yuridik shaxslarga mo'ljallangan. Guruh sifatida — masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar, milliy ozchiliklar — kamsitilganda, hech kim rasmiy shikoyat berish va raddiya talab qilish huquqiga ega emas. Bu muhim huquqiy bo'shliq sifatida aniqlandi.

OAV da kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishning o'ziga xos jihatlari. N. Kosimova va A. Isakovning (2017) tadqiqotiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar haqidagi materiallar O'zbekiston OAV larida asosan muammo va ijtimoiy yuk prizmasida berilmoqda — ularning oddiy hayoti, kasbi, fuqarolik faolligi kontekstida esa kamdan-kam ko'rsatilmoqda.⁵ Z. Karimovanning (2023) tadqiqoti ko'rsatdiki, aholi ning 0,3–0,5 foizini tashkil etuvchi ro'm jamoasi haqidagi materiallarning aksariyati jinoyat va tilanchilik kontekstida yoritilmoqda.⁶

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ko'rsatmalariga zid holda ruhiy kasalliklarni zo'ravonlik bilan muqoyasa qiluvchi stereotip keng tarqalgan. my5tv telekanalining 2021-yilgi "Ochiqchasiga gaplashamiz" shousi muhim amaliy misol bo'ldi: voyaga yetmagan qizning

³ "Axborot olish kafolatlari" Qonuni, 10-modda; "OAV to'g'risida"gi Qonun, 35¹-modda.

⁴ O'zbekiston jurnalistlarining kasb etikasi kodeksi, 2019.

⁵ Kosimova N., Isakov O. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida nogironlik masalalarini yoritish. — Toshkent: Extremum-press, 2017. — B. 44–61.

⁶ Karimova Z. Rom jamoasini OAV da yoritish bo'yicha tadqiqot. — Toshkent, 2023. — B. 23.

shaxsiy ma'lumotlari ommaga ochiq holda taqdim etildi — bu qonunchilik, jurnalistik qoidalar va axloq normalariga ziddir.⁷

OAV da kamsitishning asosiy ko'rinishlari:

birinchidan, freyming — ozchilik vakillarini faqat muammo, xavf yoki jinoyat kontekstida ko'rsatish; *ikkinchidan*, viktimbleyming — jabrlanuvchining xatti-harakati yoki kiyimini hodisa sababi sifatida ko'rsatish; *uchinchidan*, inklyuziv til normalari buzilishi — "nogiron" o'rniga "nogironligi bo'lgan shaxs" iborasining qo'llanilmasligi; *to'rtinchidan*, "raqamli ko'paytirish" — nazorat qilinmagan izohlar nafrat tilini keng auditoriyaga yetkizuvchi parallel kanalga aylanishi.

Xalqaro tajriba: qiyosiy tahlil. To'rt davlat tajribasi qiyosiy tahlili uchta qit'ada bir xil tizimli naqshni tasdiqladi. OSCE ning 2019-yilgi Moldova monitoringida oylik davrda 347 ta material tahlil qilindi; materiallarning 91,6 foizi yuzaki yangilik xabarlar formatida bo'lib, ro'mlar haqidagi barcha materiallar jinoyat va tilanchilik kontekstida berilgan. Eng ko'rsatmali jihat: bir maqolaga 67 ta haqoratli izoh yozilib, moderatsiya qilinmagan holat — bu "raqamli ko'paytirish" mexanizmining amaliy tasdiqlashidir.⁸

AQSh da qora tanlilar va latinoamerikaliklar televidion yangiliklarda jinoyatchilar sifatida haddan ortiq ifodalanishi holati 2020–2024 yillardagi tadqiqotlarda qayta tasdiqlangan. George Floyd voqeasidan keyingi irqiy adolat xabarlar 2021–2023 yillarga kelib oldingi freylash naqshlariga qaytgan — qisqa muddatli tizimli o'zgarish bo'lmasligi ko'rsatilgan.⁹ Janubiy Afrika va Hindistonda ham rasmiy siyosat kamsituvchi mazmunni taqiqlasa-da, ijtimoiy tarmoqlar va yangilik platformalari orqali tarqalayotgan kamsituvchi mazmunni nazorat qilish mexanizmlari hali shakllanmagan.¹⁰

Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, bu assimetriya biron bir jurnalistning shaxsiy niyatidan emas, tahririyat siyosati, tijorat mantig'i va kasbiy ta'limdagi kamchiliklar oqibatidan kelib chiqadi. OSCE HCNM ning 2019-yilgi Tallinn qo'llanmalarida (37 ta yo'riqnoma) ham ta'kidlanganidek, ozchilik guruhlarini yoritishdagi muammo individual emas, balki tizimli xarakter kasb etadi va davlatning ijobiy majburiyatini talab etadi.¹¹

Aniqlangan huquqiy bo'shliqlar. Tadqiqot davomida O'zbekiston OAV sohasida beshta asosiy huquqiy bo'shliq aniqlandi.

Birinchi — kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishda muayyan axloqiy mezonlar qonun darajasida belgilanmagan. "OAV to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi kamsituvchi axborotni

⁷ my5tv. "Ochiqchasiga gaplashamiz", 2021. Tahlil muallifniki.

⁸ OSCE Mission to Moldova. Media Monitoring Report: Coverage of Ethnic Minorities in Moldovan Media (May 7 – June 7, 2019). — Vienna: OSCE, 2019. — P. 12–18.

⁹ Dixon T.L., Williams Ch. The Changing Misrepresentation of Race and Crime on Network and Cable News // Journal of Communication. — 2025. — Vol. 75, No. 2. — P. 163.

¹⁰ Rao Sh., Mohamed I. Caste, Communalism and the Press: Rethinking Media Ethics in South Asia // Asian Journal of Communication. — 2022. — Vol. 32, No. 5. — P. 410.

¹¹ OSCE High Commissioner on National Minorities. The Tallinn Guidelines on National Minorities and the Media in the Digital Age. — The Hague: OSCE HCNM, 2019. — Guideline 2, 17, 33.

taqiqlaydi, biroq "adovat qo'zg'atish" bilan "xolis yoritish" o'rtasidagi chegara aniq mezonlarsiz qolgan.

Ikkinchi — ozchilik vakillarini kontent tayyorlash jarayoniga jalb etish mexanizmi qonunchilikda nazarda tutilmagan.

Uchinchi — OAV tomonidan kamsitish xarakteridagi material tarqatilganda jabrlanuvchi guruhning himoya mexanizmlari yetarlicha ishlamaydi: 34-modda faqat alohida shaxslarga mo'ljallangan, guruhiy kamsitish holatlari qamrab olinmagan.

To'rtinchi — onlayn OAV larning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tarqalayotgan kamsituvchi izohlar ga nisbatan moderatsiya talablari belgilovchi huquqiy norma mavjud emas.

Beshinchi — kamsitish va ozchilik mavzularida material tayyorlovchi jurnalistlar uchun ixtisoslashtirilgan professional ta'lim va malaka oshirish majburiyligi qonun darajasida belgilanmagan.

Yangi nazariy ta'riflar. Tadqiqot doirasida ikkita yangi nazariy ta'rif ishlab chiqildi va taklif etilmoqda.

OAV da ozchilik masalalari — ommaviy axborot vositalarida yoritilish hajmi, roli va konteksti jihatidan jamiyatdagi haqiqiy ulushiga nisbatan kamroq, bir tomonlama yoki stereotip tarzda ifodalangan, etnik, diniy, gender, ijtimoiy yoki jismoniy-psixologik belgisi bo'yicha aniqlangan va shu belgisi tufayli OAV axborot ishlab chiqarish jarayonida qarorlarni mustaqil shakllantirish imkoniyatidan cheklangan shaxslar yoki guruhlardir.

OAV da kamsitish — ommaviy axborot vositalarining axborot tanlash, fremlash, ifodalash yoki tarqatish jarayonida muayyan shaxs yoki guruhning qadr-qimmatini, ijtimoiy obro'sini yoxud huquqiy tengligini pasaytiruvchi, unga nisbatan asossiz salbiy tasavvur, stereotip yoki nafrat uyg'otuvchi hamda bu guruhning jamiyatdagi to'liq ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi har qanday harakatlar, mazmun yoki tizimli naqshlardir — bu jarayon ongli niyatdan qat'i nazar yuzaga kelishi mumkin.

Tavsiyalar: uch darajali kompleks model. Aniqlangan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish uchun uch darajali kompleks model tavsiya etiladi. Uch daraja bir-birini to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida ishlashi kerak: qonunchilik minimal standartlarni belgilaydi, kasbiy etika bu standartlarni oshirib ketishni rag'batlantiradi, ta'lim esa o'zgarishni kasbiy madaniyat darajasiga ko'taradi.

Birinchi daraja — *huquqiy asos*: "OAV to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga ozchilik vakillarini to'liq kontekstda yoritish talabini kiritish; 5¹-moddasiga inklyuziv jurnalistikani rag'batlantirishda davlat grantlarida ustuvorlik mexanizmi qo'shish; 34-moddasini guruhiy kamsitish holatlari uchun kengaytirish; onlayn OAV lar uchun moderatsiya majburiyatini belgilash.¹²

Ikkinchi daraja — *kasbiy tartibga solish*: Kasb etikasi kodeksini inklyuziv til, viktimbleyming taqiqi, JSST "Xavfsiz xabarlar" tamoyillari bilan to'ldirish; "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish" Qonunining 6-moddasiga voyaga yetmaganlar ishtiroki bo'lgan materiallar uchun maxsus himoya normasi kiritish; OAV bo'yicha Jamoatchilik kengashiga ozchilik vakillarini kiritish; mustaqil yillik monitoring va ochiq hisobotni joriy etish.¹³

¹² Taklif: "OAV to'g'risida"gi Qonun, 6, 5¹, 34-moddalar.

¹³ Taklif: "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish" Qonuni, 6, 7¹-moddalar.

Uchinchi daraja — ta'lim va madaniyat: Oliy ta'lim muassasalarida "Inklyuziv jurnalistika" maxsus kursini kiritish; faoliyat yuritayotgan jurnalistlar uchun doimiy malaka oshirish dasturlari; auditoriya mediasavodxonligini oshirish bo'yicha milliy dastur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston OAV sohasida kamsitish va ozchilik mavzularini yoritishning axloqiy va huquqiy jihatlari bo'yicha yaxlit tizim hali shakllanmagan. Bu bo'shliq individual jurnalistning xatosidan emas, tizimli omillar — qonunchilik bo'shliqlari, etika kodeksiga rioya etilmasligi va kasbiy ta'limdagi kamchiliklar — oqibatidan kelib chiqmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasining 81–82-moddalari OAV erkinligini deklarativ tarzda kafolatlaydi, biroq raqamli muhitda — ijtimoiy tarmoqlar va onlayn OAV da — bu erkinlikni amalda ta'minlash mexanizmlari hali shakllanmagan.¹⁴

Tavsiya etilayotgan uch darajali model va oltita qonunchilik taklifi O'zbekistonga xalqaro standartlarni milliy an'analar va ijtimoiy sharoitga moslashtirib joriy etish imkonini beradi. Bu jarayonda asosiy harakat turi OAV hamjamiyatining o'zi, uning mas'uliyat hissi va professional sadoqati bo'lishi kerak — qonunchilik va institutlar esa buning uchun qulay muhitni yaratishi lozim.

Keyingi tadqiqot istiqbollari sifatida quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi: "raqamli ko'paytirish" mexanizmiga qarshi huquqiy choralarning qiyosiy samaradorligini o'lchash; inklyuziv til talablarining OAV amaliyotiga ta'sirini monitoring qilish; ozchilik vakillari bilan ishlashning ixtisoslashtirilgan metodologiyasini doktrinaldoktrinall jihatdan ishlab chiqish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi PF-21-son Farmoni // lex.uz/uz/docs/-8050769
2. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-78-son, 15.01.2007 // lex.uz/docs/-1106870
3. O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonuni, 400-I-son, 24.04.1997 // lex.uz/docs/-1319
4. O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi. Jurnalistlarning kasb etikasi kodeksi. — Toshkent, 2019.
5. Kosimova N., Isakov O. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida nogironlik masalalarini yoritish: uslubiy qo'llanma. — Toshkent: Extremum-press, 2017.
6. Karimova Z. Rom jamoasini OAV da yoritish bo'yicha tadqiqot. — Toshkent, 2023.
7. my5tv. "Ochiqchasiga gaplashamiz" ko'rsatuvi tahlili, 2021.
8. OSCE Mission to Moldova. Media Monitoring Report: Coverage of Ethnic Minorities in Moldovan Media (May 7 – June 7, 2019). — Vienna: OSCE, 2019.
9. Dixon T.L., Williams Ch. The Changing Misrepresentation of Race and Crime on Network and Cable News // *Journal of Communication*. — 2025. — Vol. 75, No. 2. — P. 149–172.
10. Rao Sh., Mohamed I. Caste, Communalism and the Press: Rethinking Media Ethics in South Asia // *Asian Journal of Communication*. — 2022. — Vol. 32, No. 5. — P. 401–418.
11. OSCE High Commissioner on National Minorities. The Tallinn Guidelines on National Minorities and the Media in the Digital Age. — The Hague: OSCE HCNM, 2019.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 81, 82-moddalar. // lex.uz/docs/-6445145

12. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. 34-modda // lex.uz/docs/-1106870
13. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 402-I-son, 24.04.1997 // lex.uz/docs/-9540
14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 yil 30 apreldagi referendumda qabul qilingan. 81, 82-moddalar // lex.uz/docs/-6445145